Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 004

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

# ELEKTRON LEKSIKOGRAFIYA TARIXIY TARAQQIYOTI VA RAQAMLI LUG’ATLAR ISTIQBOLLARI

Adolat Adilbayevna Yuldashova*

*O’zbekiston Milliy universiteti*

✉ adolat111@mail.ru

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada an’anaviy leksikografiyadan elektron va kompyuter leksikografiyasiga o‘tish bosqichlari, bosma lug’atlarga bo’lgan talabning kamayishi hamda raqamli media muhitida lug‘atchilik sohasining jarayonlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar**

elektron leksikografiya, kompyuter leksikografiyasi, elektron (raqamli) lug’atlar, kodlashtirish

DOI: 10.5281/zenodo.23281553

Leksikografiya ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan, chuqur ildiz otgan akademik va madaniy amaliyotdir. Biroq, 1990-yillarning oxiridan boshlab Internetning shiddatli rivojlanishi hamda raqamli texnologiyalar bilan sun’iy intellektning kirib kelishi ushbu faoliyat sohasida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. Bugungi kunda tobora ko‘proq lug‘at foydalanuvchilarining elektron lug‘atlarga bo‘lgan talabi keskin oshib bormoqda, bu esa o‘z navbatida bosma lug‘atlardan foydalanishning kamayishiga sabab bo‘lyapti. Natijada, bundan bir necha yillar oldin ayrim tilshunos olimlarning an’anaviy lug‘atlar o‘rni uzoq istiqbolda elektron lug‘atlar tomonidan butunlay egallanishi mumkinligi to‘g‘risidagi qarashlari bugun o‘z isbotini topmoqda.

Bugungi kunda mustaqil fan sohasi sifatida endigina tan olinayotgan elektron leksikografiyaning ildizlari o‘tgan asrning 50-yillari oxiri va 60-yillarining boshlariga borib taqaladi. O‘sha davrda bu soha „kompyuter leksikografiyasi“ yoki „kompyuter lingvistikasi lug‘atchiligi“ deb atalgan, lug‘atlarning o‘zi esa elektron emas, balki „mashina o‘qiydigan lug‘atlar“ deb yuritilgan[4;1]. U paytda sohaning qamrov doirasi faqatgina „lug‘at tuzishda kompyuterlardan foydalanish“ bilan cheklangan edi. O‘sha davrdagi kompyuterlarning roli L. Urdangning kompyuter texnologiyalariga tayangan eng birinchi lug‘atlardan biri — „Random House Dictionary of the English Language“ nashrining birinchi jildi haqidagi hisobotida yaqqol ko‘rinadi:

„Biz o‘sha yillardan oldinroq kompyuter texnologiyalarining rivojlanishini diqqat bilan kuzatib borgan edik va qo‘limizdagi ma’lumotlarni hamda yozilishi kerak bo‘lgan matnlarni saralash, kodlash, qayta tartiblash va tekshirishda kompyuterlardan foydalanishga umid qilgan edik“[4;2]. Ushbu umidlar to‘liqligicha oqlangan. Biroq, o‘sha davrning kompyuter texnologiyasi lug‘atni bevosita ishlab chiqarish jarayonini qamrab ololmas edi, shu sababli u baribir an’anaviy usullar bilan nashr etilgan: „Dastlab biz avtomatik matn terish qurilmasiga kiritish uchun magnit lenta tayyorlamoqchi edik. Afsuski, ishlab chiqarish bo‘limimizni bunday ishning amalga oshishi mumkinligiga ishontira oladigan darajada yirik, universal yoki o‘z uskunalariga ishonadigan birorta ham korxona topilmadi“. O‘sha vaqtlarda na leksikograflar va na lug‘atdan foydalanuvchilar kompyuter bilan bevosita aloqada bo‘lgan. Leksikograflar „lug‘at maqolalarini qog‘ozda yozishda davom etardilar, ma’lumotlarni kompyuterga kiritish esa kompyuter mutaxassislarining zimmasida qolar edi“.

Mashina o‘qiydigan lug‘at formatidan leksik ma’lumotlar bazasi formatiga o‘tgan va shu orqali leksikograflarga lug‘at maqolalarini loyihalashda katta yordam bergan birinchi lug‘at „Longman Dictionary of Contemporary English“bo‘ldi. Shundan so‘ng, birinchi lug‘atlar CD-ROM formatida paydo bo‘lishi va foydalanuvchilar lug‘atning elektron shakldagi afzalliklarini o‘z amaliyotlarida chinakamiga his qilishlari uchun yana bir necha yillar o‘tishi talab etildi[4;2].

Asrlar davomida lug‘at tuzish amaliyoti pergament yoki qog‘oz kabi moddiy tashuvchilarga hamda tegishli yozuv qurollariga bog‘liq bo‘lib keldi. Kitob bosishning va asrlar o‘tib yozuv mashinkasining ixtiro qilinishi ushbu mehnat jarayonini, shuningdek, uning mahsulotlarini ko‘paytirish va tarqatishni sezilarli darajada osonlashtirdi. Shunga qaramay, taxminan o‘ttiz yil muqaddam bo‘lgan davrgacha ham kartoteka qutisi leksikografik faoliyatning eng asosiy tayanch nuqtasi bo‘lib qolaverdi: lug‘atlar yuzlab ko‘ngillilar tomonidan to‘plangan ma’lumotlarni jamlash orqali yaratilar edi. Leksikografik amaliyotning ikkinchi tayanch nuqtasi esa bosma asardan o‘ziga zarur bo‘lgan ma’lumotlarni imkon qadar tezroq topishi kerak bo‘lgan lug‘at foydalanuvchisi edi. Bosma nashrlarda joy muammosi eng katta to‘siq hisoblangan. Shu sababli, leksikografik amaliyot asrlar davomida kitob sahifasining ikki o‘lchovli yuzasida leksikografik ma’lumotlarni to‘plash va aks ettirishning mukammal texnikalarini ishlab chiqdi. Bu holat foydalanuvchidan aksariyat hollarda kichik bo‘lmagan ushbu bosma asarlardan ayni damda kerakli axborotni izlab topish uchun muayyan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etgan hamda bugungi kunda ham talab qilib kelmoqda[2;4].

Leksikografik amaliyotda aytib o‘tilgan ushbu vazifalarni leksikografik jarayonlarni, kompyuterlarni va ayniqsa, nutq texnologiyalarini chuqur tushunadigan mutaxassislar hal qilishlari lozim. Mazkur ixtisoslashgan soha kompyuter leksikografiyasi deb ataladi. Kompyuter leksikografiyasi deganda biz kompyuter yordamida va kompyuter uchun amalga oshiriladigan leksikografiyani tushunamiz. Leksikografik faoliyat ko‘p bosqichli, keng qamrovli va katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlashni talab qiladi, shu sababli ushbu jarayonni mashina yordamida qo‘llab-quvvatlash juda muhim hisoblanadi. Bu borada leksikograflarga leksikografik ma’lumotlarni to‘plash, tahrirlash, taqdim etish va qayta ishlash jarayonlarida texnik yordam ko‘rsatiladi. Lug‘at foydalanuvchilariga esa o‘zlari uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarga elektron shaklda kirish imkoniyati yaratiladi. Matnga ishlov beruvchi avtomatik tizimlar bir yoki bir nechta tillardagi so‘zlar zaxirasi bo‘yicha qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan leksik axborotni taqdim eta oladigan leksik resurslarga ehtiyoj sezadi[2;5].

Hozirgi vaqtga kelib, bir necha daqiqa ichida va mutlaqo bepul asosda dunyodagi deyarli barcha yirik tillarga, shuningdek, ko‘plab kichik va yo‘qolish arafasidagi tillarga oid keng ko‘lamli leksikografik manbalarni topish va ularni ko‘zdan kechirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bundan bir avlod muqaddam kutubxonalarda murakkab qidiruv ishlarini olib borish 90-yillari o‘rtalaridayoq, ya’ni kompyuter texnologiyalari lug‘atchilik jarayonlarini tubdan o‘zgartira boshlagan davrda boshlangan edi[1;14]. Ko‘p o‘tmay lug‘atlarning muqobil media tashuvchilarda chop etilishi ham odatiy holga aylandi. Ammo lug‘atchilik sohasi qiyofasining yanada keskin o‘zgarishi Internet tarmog‘ida nufuzli nashriyotlar tomonidan yaratilmagan bepul lug‘atlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Onlayn makondagi bunday ochiq leksikografik manbalar to‘plami sifat jihatidan akademik va rasmiy nashr etilgan lug‘atlar bilan to‘liq raqobatlasha olmagan bo‘lsa-da, baribir juda katta auditoriyani o‘ziga jalb qildi va nashriyotlarning bosma lug‘atlari savdosining inqirozga uchrashiga olib keldi. Xuddi shuningdek, akademik lug‘atchilik sohasi ham o‘zgargan media muhitiga moslashishi uchun juda uzoq vaqt talab etildi. Shunga qaramay, ushbu loyihalarga jalb qilingan ko‘plab leksikograflar va tadqiqotchilar raqamli mediani hamda Internet platformasini leksikografiya uchun ulkan imkoniyatlar manbai sifatida ko‘ra oldilar[1;15].

Bugungi kunda lug‘atchilik bozorida bosma lug‘atlarga ularning elektron talqinlarini ilova qilish yoki lug‘at loyihalarini bevosita elektron muhit uchun maxsus ishlab chiqish tendensiyasi tobora kengayib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu elektron talqinlarning taqdim etadigan qo‘shimcha imkoniyatlari tez-tez ta’kidlab o‘tiladi. Ba'zan yangi muhit imkoniyatlaridan multimedia elementlarini boyitish maqsadida ham foydalaniladi. Biroq, bu holatda elektron lug‘atdan foydalanish jarayoni pirovardida bosma lug‘atnikidan tubdan farq qilmaydi. O‘zgarishlar asosan lug‘at maqolalariga tashqi tomondan kirish imkoniyatlaridagina namoyon bo‘ladi. Masalan, kitobdagidek faqat alifbo tartibi orqali lug‘at maqolasiga borish o‘rniga, qidiruv maydoni yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muayyan lemmaga o‘tish yoki butun maqolalar to‘plami bo‘ylab to‘liq matnli qidiruvni amalga oshirish mumkin[3;30]. Ammo bu usulda ham lug‘atdan foydalanish harakati, xuddi bosma lug‘atdagi kabi, faqatgina

maqola boshigacha yetib boradi, xolos - maqolaning o‘zini baribir o‘qib chiqish talab etiladi; ushbu mutolaa jarayoni esa uzog‘i bilan maxsus qidiruv zonalari orqali biroz yengillashtirilishi mumkin. Vaholanki, monitor ekrani matnni uzluksiz o‘qish uchun unchalik qulay emas. Elektron muhitdan shu tariqa foydalanilganda, u qog‘oz tashuvchining afzalliklaridan ortda qoladi.

Elektron lug‘atlarning sifati qisman qoniqarsiz ekanligining yana bir sababi shundaki, ular ko‘p hollarda leksikograflarning bevosita ishtirokisiz, balki dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilari tomonidan yaratiladi. Bunga chora sifatida, leksikografiya sohasidagi kompetensiyalarni yangi media sohasi imkoniyatlari bilan integratsiya qilish zarur. Buning natijasida lug‘atda mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar bazasi bo‘ylab qidiruv o‘tkazishga imkon beradigan, sifat jihatidan tubdan ustun bo‘lgan elektron mahsulotlar yuzaga kelishi mumkin. Agar leksikografiya va matn texnologiyalari sohalarining salohiyati birlashtirilsa, kontentni butunlay boshqacha shaklda saralash va undan samarali foydalanish imkoni tug‘iladi[3;30].

Elektron leksikografiyaning taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy lug‘atlar shunchaki qog‘oz variantlarning monitorga ko‘chirilgan shakli bo‘lib qolmasligi kerak. Ular foydalanuvchilarning individual axborot ehtiyojlarini qondira oladigan, doimiy yangilanib turuvchi, ma’lumotlar bazasi ko‘rinishidagi dinamik tizimlarga aylanmoqda. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalarining lug‘atchilikka integratsiyalashuvi inson va kompyuter ehtiyojlarini umumiy bir nuqtada birlashtirib, leksikografiya sohasining kelajakdagi yangi istiqbollarini belgilab bermoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Annette Klosa-Kückelhaus. Internet Lexicography. Lexicographica, Series Maior.De Gruyter. 2024.

[2] Claudia Kunze. Lothar Lemnitzer. Computerlexikographie. Gunter Narr Verlag Tübingen. 2007.

[3] Ingrid Lemberg. Bernhard Schröder. Angelika Storrer. Chancen und Perspektiven computergestützter Lexikographie.. Max Niemeyer Verlag. Tübingen 2001.

[4] Sylviane Granger. Magali Paquot. Electronic Lexicography. Oxford University Press. 2012.